

NURIDDIN EGAMOV IJODIDA UNDALMALARNING
QO‘LLANILISHI VA ULARNING POETIK AHAMIYATI

Raxmatova Shoxida Turaqulovna

Qarshi shahar 32-son umum ta’lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

shoxidaraxmatova35@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nuriddin Egamov ijodida undalmalarning qo‘llanishi va ularning lingvopoetik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda undalmalarning sintaktik, semantik va stilistik xususiyatlari yoritilib, ularning badiiy matndagi emotsional-ekspressiv hamda kommunikativ funksiyalari ochib beriladi. Shoir she’rlarida uchraydigan shaxs oti asosidagi undalmalar (ona, ota, do‘stim, qadrdon) va jonsiz narsa-hodisa hamda mavhum tushunchalarga qaratilgan undalmalar (bog‘im, eh hayot, kitob) lingvopoetik jihatdan tahlil qilinadi. Tahlil natijasida undalmalarning lirik qahramonning ichki kechinmalarini ifodalash, personifikatsiya vositasida obrazlilikni kuchaytirish hamda ijtimoiy-falsafiy mazmunni ochib berishdagi o‘rni asoslanadi. Maqolada undalmalarning zamonaviy o‘zbek she’riyatida poetik ta’sirchanlikni oshiruvchi muhim vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: undalma, lingvopoetika, sintaktik birlik, emotsionallik, ekspressivlik, lirik qahramon, poetik nutq, zamonaviy o‘zbek she’riyati.

Kirish. Til badiiy matnda nafaqat axborot yetkazish, balki estetik ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan undalmalar she’riy nutqda emotsionallik, ekspressivlik va dialogiklikni ta’minlovchi asosiy sintaktik birliklardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ular orqali muallifning subyektiv munosabati va lirik qahramonning ichki kechinmalari ifodalanadi.

Undalma bo‘lak tinglovchining diqqatini gap shakl bilan anglatilayotgan fikrga jalb qilish uchun xizmat qiladi, bosh kelishikdagi sintaktik birlik bilan ifodalanadi, undash ohangi bilan aytiladi [1].

Undalma — so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmet deb tasavvur qilingan hodisani bildiradigan so‘z yoki so‘z birikmasi. Undalma, kirishlar yoki kiritmalar kabi, gapni kengaytiradi, ammo uning bo‘laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, yozuvda vergul yoki undov belgisi bilan ajratiladi. Undalma gap boshida ham, o‘rtasida ham va oxirida ham kelishi mumkin[4].

Nuriddin Egamov she‘riyatida undalmalar faol qo‘llanib, poetik nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Nuriddin Egamov she‘riyatida undalmalarning qo‘llanishini o‘rganish uchun lingvistik va lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi. Deskriptiv metod asosida undalmalarning shakli va qo‘llanishi aniqlanib, kontekstual tahlil orqali ularning badiiy matndagi funksiyalari ochib berildi. Shuningdek, komponent tahlil yordamida undalmalarning semantik va emotsional-ekspressiv xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy yondashuvlar qo‘llanilib, undalmalarning shoir uslubidagi o‘rni va poetik ahamiyati asoslandi.

Asosiy tahlil. Nuriddin Egamov lirikasining ko‘tarinki va ta’sirchan ohang kasb etishida muhim sintaktik vositalardan biri sifatida undalmalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning qo‘llanishi, avvalo, shoir - lirik qahramonning o‘ziga xos individual uslubi, shuningdek, uning insonlar hamda turli narsa-hodisalarga nisbatan ko‘tarinki ruhdagi munosabati bilan bevosita bog‘liqdir.

Dastavval ta’kidlash lozimki, undalmalar Nuriddin Egamov ijodining asosiy murojaat ohangini ta’minlovchi vosita bo‘lib, ular she’rning lingvopoetik jihatdan badiyatini yuksaltirishga xizmat qilganligini quyidagi

“Ulg‘ayish”, “Alifbo”, “Kechikkan ko‘klam kayfiyatlari” va “Bolangiz o‘qishga kiribdi” kabi bir qator she‘rlarini tahlil qilish orqali ko‘rishimiz mumkin.

E‘tiborli jihat shundaki, shoir ijodida qo‘llangan undalmalar qo‘llaninish usuliga ko‘ra ikki katta guruhga ajratiladi.

Ya‘ni:

1. Shaxs oti nomidagi undalmalar:

Nuriddin Egamov she‘rlarida shaxs oti nomidagi undalmalar lirik qahramonning ichki kechinmalari va ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Nega yolg‘on aytdingiz, **ona**,

Qorbobo bo‘lmagan ekan-ku?!

Nega yolg‘on aytdingiz, **ota**,

Kashsheylar o‘lmagan ekan-ku...[2]

Bu o‘rinda qo‘llangan “ona” va “ota” undalmalari lirik qahramonning bolalikdagi eng ishonchli shaxslarga murojaatini bildiradi. “Ona” va “ota” so‘zlari bu yerda faqat chaqiriq emas, balki bolalik ishonchi va ertak dunyosi ramzi sifatida kelgan.

Lingvopoetik jihatdan bu undalmalar ishonchning sinishini, bolalik tasavvurlarining buzilishini, hayotiy haqiqatga yuzlashishni ifodalaydi.

Nega meni aldading, **do‘stim**,

Oshnalik oshgacha ekan-ku?! [2]

Yuqoridagi parchada keltirilgan “do‘stim” undalmasi esa insoniy munosabatlarning sinishini ifodalaydi. U ijobiy ma‘noga ega bo‘lsa-da, “aldading” fe‘li bilan birga kelib, keskin ziddiyat yaratadi.

Bu undalma orqali do‘stlikka bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi, insoniy munosabatlarning beqarorligi, hayotiy tajriba ortishi badiiy tarzda ochib beriladi.

Yana bir to‘rtlikka e‘tibor qaratamiz:

Siz bugun xo‘b ko‘krak kerasiz,

Ulfatlar ko‘p tomoq qiribdi...

Qadrdon, qachon “haq berasiz?!”

Bolangiz o‘qishga kiribdi! [3]

Ushbu o‘rinda qo‘llanilgan “Qadrdon” so‘zi undalma vazifasida kelib, kinoyaviy ma’noda qo‘llangan. Ushbu so‘z aslida yaqinlik ma’nosini bildirsa-da, she’rda u ijtimoiy tanqid vositasiga aylanganligining guvohi bo‘lib turibmiz.

Bu yerda ijodkor undalma orqali manfaatparastlik, rasmiyatchilik, “haq” kutish odati fosh etiladi.

2. Jonsiz narsa-hodisa nomidagi undalmalar:

Nuriddin Egamov she’rlarida jonsiz va mavhum tushunchalarga qaratilgan undalmalar ham muhim o‘rin tutadi. Ular personifikatsiya asosida qurilib, tabiat va hayot hodisalarini jonlantiradi.

Munchoqday muzladi novdada kurtak,

Sirin gullab qo‘ydi go‘l bodom qishga.

Izg‘irin, izg‘ima, sang‘i yugurdak,

Bog‘im, tutayvermay, qoldir chekishdan... [2]

She’rlarda quyidagi jonsiz undalmalar uchraydi:

Bu misrada “bog‘im” so‘zi bevosita murojaat shaklida kelgan undalmadir. Egalik qo‘shimchasi (-im) unga yaqinlik va hissiy bog‘liqlik ma’nosini beradi. Lingvopoetik jihatdan bog‘ inson kabi tasvirlanadi, tabiat jonlantiriladi, ruhiy holat tabiat orqali ifodalanadi.

Ishim go‘yo - “qalpoq”, tashvishim - "dum"dor,

O‘qib til ilmini takror va takror,

Eh hayot, tilingni topa olmadim,

Alifbongdan bir harf anglamoq dushvor... [2]

Bu misrada “hayot” mavhum tushuncha bo‘lsa-da, unga bevosita murojaat qilingan. “Eh” undovi esa emotsional ohangni kuchaytirib, uning

lingvopoetik vazifasi - hayotni jonli suhbatdoshga aylantirish, hayot murakkabligini ifodalash, lirik qahramon iztirobini kuchaytirishdan iborat bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Kitob, senga ishonib o'sdim,

Bu hayot boshqacha ekan-ku... [2]

Bu o'rinda ishlatilgan "kitob" so'zi jonsiz predmet bo'lsa-da, u insonga xos sifatlar bilan jonlantirilgan va murojaat obyekti sifatida berilgan. Lingvopoetik jihatdan kitob bilim va haqiqat ramzi, ideal va real hayot qarama-qarshiligi ifodasi, ishonch va hayotiy tajriba ziddiyati ochib beriladi.

Xulosa. Nuriddin Egamov ijodida undalmalar badiiy matnning muhim lingvopoetik vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tahlil qilingan she'rlarda undalmalar ikki asosiy guruhga — shaxs oti nomidagi undalmalar (ona, ota, do'stim, qadrdon) va jonsiz narsa-hodisa hamda mavhum tushunchalarga qaratilgan undalmalar (bog'im, eh hayot, kitob)ga ajraladi.

Shaxs oti nomidagi undalmalar lirik qahramonning insonlar bilan bo'lgan munosabatini, uning bolalikdan yetuklikka o'tish jarayonidagi ruhiy kechinmalarini ochib beradi. "ona" va "ota" undalmalari orqali ishonch va bolalik tasavvurlarining sinishi, "do'stim" undalmasi orqali insoniy munosabatlardagi ishonchsizlik va hayotiy tajriba ortishi, "qadrdon" undalmasi orqali esa ijtimoiy muhitdagi kinoya va tanqidiy munosabatlar ifodalangan.

Jonsiz narsa-hodisalarga qaratilgan undalmalar esa she'rlarda personifikatsiya vositasini yuzaga keltirib, tabiat va mavhum tushunchalarni jonlantirishga xizmat qiladi va o'z navbatida bu badiiy adabiyotda tashxis she'riy san'atini yuzaga chiqaradi. "Bog'im" undalmasi tabiat manzarasini insoniy hissiyotlar bilan uyg'unlashtirgan bo'lsa, "eh hayot" undalmasi hayotning murakkabligi va uni anglashdagi ichki iztirobni falsafiy ohangda ifodalaydi. She'rdagi "kitob" undalmasi esa bilim va hayot haqidagi ideal tasavvur hamda real voqelik o'rtasidagi ziddiyatni ochib beradi.

Umuman olganda, Nuriddin Egamov she'rlarida undalmalar nafaqat murojaat birligi, balki kuchli emotsional-ekspressiv, falsafiy va ijtimoiy-baholovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ular lirik qahramonning ichki dunyosini ochish, hayotiy haqiqatlarni badiiy ifodalash hamda she'ning ta'sirchanligini oshirishda muhim poetik vazifani bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent:- "Universitet"-nashriyoti,-2006. -476-b.
2. Egamov N. Kitob ko'targan odam. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, – 2021.- 288 b.
3. Nuriddin Egamovning shaxsiy internet sahifasidan.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Undalma>